

ISLOM HUQUQIDA BITIMLARNI RASMIYLASHTIRISH VA BEKOR QILISH QOIDALARI

A.A. Yo‘ldoshbekov

*Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola islom huquqida bitimlarni tuzish, ularni rasmiylashtirish va bekor qilishga oid qoidalarni huquqiy tahlil qiladi. Islom huquqining asosiy manbalari bo‘lgan Qur‘on va Hadislarda bitimlar institutining asosiy tamoyillari o‘z aksini topgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi va talqinida sahobalarning ijihodlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda bitimlarni tuzish jarayonining huquqiy asoslari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda rasmiylashtirishning zarur talablari batafsil o‘rganiladi.*

Bitimlarni bekor qilish qoidalari esa alohida tahlil qilinib, qaysi shart-sharoitlarda bitim bekor qilinishi mumkinligi, tomonlarning roziligi va bitim shartlariga rioya qilmaslik holatlari kabi masalalar yoritiladi. Mazkur tadqiqot islom huquqida bitimlar tuzish va bekor qilish jarayonlarining zamonaviy huquqiy tizimlar bilan o‘xshashligi hamda tafovutlarini ko‘rsatish orqali ularning nazariy va amaliy ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar. *Islom huquqi, bitimlar, rasmiylashtirish qoidalari, bitimni bekor qilish, huquqiy mexanizmlar, bitimlar instituti.*

Islom huquqida shartnomalarni rasmiylashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Islom huquqi dunyo musulmonlari uchun asosiy huquqiy va axloqiy tizim bo‘lib, u Qur‘on, Hadis va ijihod kabi manbalarga tayanadi. Ushbu huquq tizimi jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab olgan, xususan, bitimlar tuzish va ularni bekor qilish qoidalari ham islom huquqida alohida o‘rin tutadi. Bitimlar – shartnoma yoki kelishuvlar – iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Islom huquqida bitimlar institutining rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va tijoriy aloqalarni muvozanatli va adolatli tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, shari‘atda bu boradagi qoidalar aniq belgilangan.

Shu bilan birga, islom huquq tizimida har qanday shartnoma davlat tomonidan tasdiqlanishi lozimligi, shuningdek, bu ishni davlat qozilar amalga oshirganligi keltirib o‘tilgan. Islom huquq tizimida qozilarning shartnomalarni rasmiylashtirish va ularni tasdiqlash tartib qoidalari bo‘yicha alohida fan ham shakllangan bo‘lib, u fan *shurut* ilmi deb atalgan. Bu ilmning mashhur namoyandalari Abu Zayd Shurutiy, Abu Hafs Umar an-Nasafiyning qarashlarida Fatovoyi zaxiriya, Fatovoyi olamgiriya, Muhiti Burhoniy va boshqa asarlarda o‘rin berilgan¹⁴.

¹⁴ Shayx Nizom. Fatvoyi hindiya yoki Fatvoyi Olamgiriya / Muhammad Avrangzeb Olamgir nazorati ostida. 6-jild. - Bayrut. “Dorul-kutubil-ilmiya”, 2000(arab tilida)



Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) bitimlar tuzish jarayonida rostgo‘ylik va ishonchlilikka katta e‘tibor qaratganlar. U zotning hadislarida savdo-sotiq, ijaralar va boshqa moliyaviy bitimlar qanday amalga oshirilishi kerakligi batafsil bayon etilgan. Misol uchun, bir hadisda u zot shunday deganlar:

“Ikki sotuvchi ham bitimni bekor qilish yoki tasdiqlash huquqiga ega. Agar ular rostgo‘y va hamma narsani aniq aytib berishsa, savdolariga baraka bo‘ladi, agar biror narsani yashirsalar yoki yolg‘on gapirsalar, savdolarining barakasi yo‘qoladi”¹⁵

Shuningdek, islom fuqarolik huquqiga ko‘ra, bitim ikkita oqil, bolig‘, erkak musulmonning guvohligida tuzilishi shart. Ilk davrlarda muhim ishlar bo‘yicha odatda bitimlar yozma ravishda, odatiy kundalik ishlar yuzasidan esa og‘zaki holda tuzilgan. Keyinchalik ikkinchi xalifa Umar qozilik idoralarini joriy qilganlaridan so‘ng mazkur ma‘nodagi shartnomalarga qozilar tomonidan tasdiqlovchi muhrlar, imzo qo‘yilgan¹⁶.

E‘tiborli jihati shundaki, O‘zbekiston qonunchiligi ham bitimlar adolatli va shaffof bo‘lishini ta‘minlaydi. Huquqiy tomonlar qonun doirasida o‘zaro huquq va majburiyatlarni to‘liq bajarishlari talab qilinadi. Bitimlar noto‘g‘ri axborot berish, aldov yoki firibgarlik asosida tuzilgan bo‘lsa, ular haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Savdo bitimi to‘g‘ri bo‘lishi uchun unda savdoning 4 rukni (sharti) topilishi kerak, ushbu ruknlar quyidagilardan iborat:

- *Iyjob va qabul (taklif va rozilik).*
- *Sotuvchi va xaridor (ya’ni ularning bor bo‘lishi).*
- *O‘zaro kelishilgan narx (arab tilida saman).*
- *Savdoga qo‘yilayotgan narsa (arab tilida mabe’).*
- *Mazkur ruknlardan birortasi topilmasa, savdo to‘g‘ri hisoblanmaydi*¹⁷.

Shu o‘rinda, Islom huquqi qoidalariga ko‘ra, sotib oluvchi sotib olingan molning sifatsizligi tufayli oldi‘sotdi shartnomasini bekor qilishi to‘g‘risidagi masalani ko‘tarishga haqli emas, basharti:

- molni sotib olish chog‘ida u molning nuqsonidan ogoh topgan bo‘lsa;
- mijoz nuqsonli molni sotib olishga rozilik bergan bo‘lsa;
- molni sotib olish chog‘ida sotib oluvchi molning nuqsoni aniqlangan taqdirda da‘vo qilmasligi va nuqson uchun haq so‘ramasligini aytgan bo‘lsa;
- agar molni sotish chog‘ida xaridor uning nuqsonlaridan ogoh etilgan bo‘lsa. Lekin bu holda u, agar sotuvchi ogoh etmagan nuqsonlarni topgudek bo‘lsa, bitimni bekor qilish yoki nuqson uchun haq talab qilish huquqiga ega bo‘lmaydi¹⁸.

O‘zbekiston milliy huquq tizimida ham bitimning bekor qilinishi Fuqarolik Kodeksida aniq tartibga solingan bo‘lib, ya‘ni bitim faqat qonuniy asosda bekor qilinadi. Masalan, tomonlar kelishib, bitimni bekor qilishlari yoki sud orqali bir tomonning huquqlarini

¹⁵ Imom Buxoriy, **Sahih al-Buxoriy**, Kitob al-Buyu' [Savdo boblari], 34-bob, 2079-hadis.

¹⁶ Alqazou fi axdi Umar(Umar davrida chiqarilgan hukmlar). Bayrut. 1997. 1.j. Muqaddima(arab tilida).

¹⁷[https://islommoliyasi.uz/uz/saman/\(https://t.me/iv?url=https://islommoliyasi.uz/uz/saman/&rhash=ac8e907b29e11\)](https://islommoliyasi.uz/uz/saman/(https://t.me/iv?url=https://islommoliyasi.uz/uz/saman/&rhash=ac8e907b29e11)).

¹⁸ Burujeriy Husayn Taba Tobiy. Risolayi tavozih al-Masoil. – 4-nashr. – Tehron. 2001. (fors tilida).



buzganlik uchun bekor qilinishi mumkin. Agar bitim noqonuniy ravishda tuzilgan yoki firibgarlik natijasida amalga oshirilgan bo'lsa, sud orqali u haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Islom huquqi va O'zbekiston qonunchiligidagi bitimlar orasida bir qator o'xshashlik va farqlar mavjud. Islom huquqida bitimlar nafaqat huquqiy, balki axloqiy va diniy tamoyillarga asoslanadi, adolat va halollik tamoyillari yetakchi o'rin tutadi. O'zbekiston qonunchiligida esa bitimlar fuqarolik va tijorat huquqi asosida tuziladi, ammo shaffoflik va qonuniylik tamoyillari muhimdir. Har ikki tizimda ham tomonlarning erkin roziligi, adolatli shartlar va qonuniy asosning mavjudligi bitim tuzishda asosiy shart hisoblanadi.

